

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISH

Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich

Namangan davlat texnika universiteti
“Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.

E-mail: lutfullaubaydullaev@gmail.com

Annotatsiya

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi ko‘plab omillar qatori innovatsion faoliyatga ham bog‘liq. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalarda innovatsiyalarni boshqarish masalalari o‘rganilgan, tadbirkorlik subyektlarida innovatsion boshqaruvning zamonaviy holati tahlil qilingan hamda innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik faoliyati, boshqaruv, innovatsiya, innovatsion boshqaruv, kichik biznes, tadbirkorlik, resurslar, samaradorlik.

Аннотация

Развитие предпринимательства, наряду со многими другими факторами, зависит и от инновационной активности. В статье рассматриваются вопросы управления инновациями на предприятиях, осуществляющих предпринимательскую деятельность, анализируется современное состояние управления инновациями в хозяйствующих субъектах и даются рекомендации по повышению эффективности инновационной деятельности.

Ключевые слова: предпринимательская деятельность, управление, инновации, инновационный менеджмент, малый бизнес, предпринимательство, ресурсы, эффективность.

Abstract

The development of entrepreneurship, along with many other factors, also depends on innovative activity. The article studies the issues of innovation management in enterprises engaged in entrepreneurial activity, analyzes the current state of innovation management in business entities, and provides recommendations for increasing the effectiveness of innovative activity.

Keywords: entrepreneurial activity, management, innovation, innovative management, small business, entrepreneurship, resources, efficiency.

KIRISH

Iqtisodiyot rivojlanishi ko‘plab omillarga bog‘liq holda amalga oshadi. Ba‘zan rivojlanish sur‘atlari ortsa, ayrim hollarda yuzaga kelgan omillar bu jarayonlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Xususan, 2020-yilda jahon mamlakatlarida boshlangan global pandemiya ham rivojlanish sur‘atlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Ushbu pandemiya dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga katta miqyosda zarar yetkazdi. Turli mamlakatlarning iqtisodchilari va menejerlari pandemiyadan keyingi davrda bu holatdan tezroq chiqib ketish chora-tadbirlarini ko‘rmoqda. Mamlakatimizda ham ushbu holatdan tezroq chiqib ketish bo‘yicha amaliy harakatlar boshlangan.

Hozirgi vaqtda ko‘plab mutaxassislar kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli inqirozlar va epidemiyalarga qarshi chora ko‘rish masalalari bilan shug‘ullanmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatbardoshligini keskin oshirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda. Pandemiya davrida boshlangan tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini izchil davom ettirish zarur.

Bu jarayonda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va iqtisodiyot rivojiga qo‘shilayotgan hissani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida hamda aholining katta qismini ish bilan ta‘minlashda tadbirkorlik faoliyati sezilarli rol o‘ynamoqda. Shu bois tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda inqirozga qarshi choralar dasturini ishlab chiqish va unda innovatsion faoliyatga alohida e‘tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik so‘zi o‘zbekcha “tadbir” so‘zidan kelib chiqqan, “biznes” so‘zi esa ingliz tilida “ish”, “faoliyat” degan ma‘noni bildiradi. Tadbirkor qanday tadbirlarni amalga oshirishi va bu tadbirlarni bajarishda qanday faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq yillardan beri tadbirkorlik faoliyatiga hamda unga ta‘sir etuvchi omillarga doir tadqiqotlar o‘tkazilib kelinmoqda. Bu borada A. Stouner, E. Dolan, R. Kontilyon, A. Tyurgo, F. Kene, A. Smit, J. B. Sei va boshqa olimlar katta hissa qo‘shgan.

Tadbirkorlik so‘zining mohiyati bo‘yicha ko‘plab ta‘riflar berilgan bo‘lsa-da, hozirgacha “tadbirkorlik” tushunchasining ko‘p ma‘noliligi saqlanib qolgan. Bu tushuncha turli olimlar tomonidan o‘z davri va ilmiy muhitiga mos tarzda izohlanib kelmoqda. Tadbirkorlik tushunchasiga ta‘rif bergan olimlar orasida A. Stouner va E. Dolan alohida o‘rin tutadi. Ular tadbirkorlikni xususiy korxonalarda faoliyat yurituvchi, foyda olishga intiluvchi hamda mahsulot va xizmatlarni yaratish orqali raqobat muhitida faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyati sifatida tavsiflaydi. Ularning fikricha, tadbirkorlik — foyda olishga yo‘naltirilgan harakat bo‘lib, bu jarayonda mahsulot va xizmatlar yaratiladi.

Tadbirkorlik faoliyati bugungi kunda ishlab chiqarish, xo‘jalik, tijorat, savdo-sotiq, vositachilik, investitsiya, maslahat berish, xizmat ko‘rsatish hamda moliyaviy sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Har bir tadbirkor qonun-qoidalar va me‘yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda, o‘z foydasini maksimal darajada oshirishga intilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, tadbirkor iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlasida, u o‘z faoliyatining jamiyat, atrof-muhit va insonlarga ta‘sirini ham hisobga olishi, salbiy oqibatlarni kamaytirishi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishga hissa qo‘shishi zarur. Demak, har bir tadbirkorlik subyekti ijtimoiy mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyati innovatsion faoliyat bilan uzviy bog‘liqdir. Innovatsiyalar orqali tadbirkorlar yangiliklarni joriy etib, raqobatbardoshlikni oshirishga erishadilar. Mamlakatimizda innovatsion faoliyatdan foydalanish asosida raqobatbardoshlikni kuchaytirish masalalari bo‘yicha yetakchi iqtisodchi olimlar — B. A. Akramov, U. V.

G'afurov, S. S. G'ulomov, Sh. N. Zaynutdinov, A. A. Radjabov, O' A. Saydaxmedov, U. A. Nazarova, G' P. Umrzoqov, T. X. Farmonov, M. Sharifxo'jayev, Y. Abdullayev, T. Sh. Shodiyev va boshqalar tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsiyalardan foydalanish masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

Innovatsiya tushunchasiga ham turli ta'riflar berilgan. Buning sababi shundaki, innovatsiyaning mazmuni va ko'rinishlari har bir davrning iqtisodiy sharoiti hamda rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lgan. Har bir tadqiqotchi o'z davri va muhitidan kelib chiqib innovatsiyani talqin qilgan. Hozirgi kunga kelib ham innovatsiya tushunchasiga yagona yondashuv mavjud emas. Shu bois, bu tushuncha bo'yicha yagona fikr shakllantirilmagan. "Innovatsiya" tushunchasiga umumiy va aniq talqin berish, uning asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Iqtisodiyotdagi har qanday tushuncha amaliyotga tatbiq etilgandagina qadrli bo'ladi. Murakkab ta'rif berish bilan cheklanib, uni amaliyotga joriy etmaslik iqtisodiyotga foyda keltirmaydi. Har qanday faoliyatda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun samara beruvchi yondashuv zarur. Shu sababli, "innovatsiya" atamasiga qisqa, aniq, obyektiv va barchaga tushunarli ta'rif berish lozim.

Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion boshqaruvning ta'siri yuqori bo'lib, uni muntazam ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotni o'tkazish jarayonida innovatsion boshqaruv masalalari o'rganildi hamda unga doir faoliyat tahlil qilindi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatida innovatsion boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha yo'nalishlar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida abstrakt-mantiqiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, sabab-natija aloqalari hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tadbirkorlik faoliyatining yanada jadal sur'atlarda rivojlanishi hamda uning salohiyatini oshirish maqsadida qator imtiyozlar berilishini ta'kidlab kelmoqda. Bu soha kelajakda mamlakat yalpi ichki mahsulotining asosiy qismini ta'minlashi lozimligi qayd etilmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlik sohasida hali to'liq ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularni faollashtirish sohaning yuqori darajada rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday imkoniyatlardan biri — tadbirkorlik faoliyatida samarali innovatsion faoliyatni tashkil etishdir.

Tadbirkorlik faoliyati innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Tadbirkorlar innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishlari, shuningdek, o'z jamoasini ham bu yo'nalishda faol bo'lishga rag'batlantirishlari zarur. Tadbirkorlikni tanlagan shaxslar doimiy ravishda o'qib-o'rganishga vaqt ajratishlari, bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borishlari kerak. Tadbirkorlar bozorda yangi, nisbatan arzonroq, sifat jihatidan ustun hamda muayyan afzalliklarga ega mahsulotlarni taklif etish orqali keskin raqobat sharoitida ustunlikka erishadilar. Iste'molchining ehtiyojini to'g'ri aniqlash va unga zarur mahsulotni yetkazib berish uchun ishlab chiqarishni oqilona yo'lga qo'yish

muhim. Bu jarayonda tadbirkorlik faoliyatining asosiy omillaridan biri — innovatsiya alohida o‘rin tutadi.

Tadbirkorlar innovatsion rivojlanishni faol qo‘llash orqali mamlakatda hamda uning hududlarida qator ijobiy natijalarga erishishlari mumkin. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va uni turli aholi qatlamlari o‘rtasida adolatli me‘yorlarda taqsimlash;
- Ish bilan band bo‘lmagan aholini ish o‘rinlari bilan ta‘minlash hamda mehnatga qobiliyatsiz jamiyat a‘zolariga zarur moddiy yordam ko‘rsatish;
- Past daromadli shaxslarning sotib olish qobiliyatini barqaror saqlash, ular uchun nisbatan arzon va sifatli mahsulotlar hamda xizmatlar yaratish;
- Jamiyatdagi guruhviy manfaatlar muvozanatini ta‘minlash;
- Inson huquqlarini himoya qilish va ularning kafolatli amalga oshirilishini ta‘minlash.

Keskin raqobat sharoitida bozorda o‘z o‘rnini saqlab qolish, foyda olish, moliyaviy barqarorlikka erishish, mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini ta‘minlashning hozirgi davrdagi eng muhim sharti — samarali innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yishdir. Samarali innovatsion faoliyat deganda ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshiruvchi yangiliklarni yaratish hamda ularni amaliyotga joriy etish tushuniladi.

Yangiliklar ko‘plab yaratilishi mumkin, biroq ularning barchasi ham samarali innovatsiya sifatida e‘tirof etilmaydi. Ijtimoiy foydali yangilik insonlar hayotini yengillashtirsa, resurslardan tejamkor foydalanishga imkon yaratsa, mahsulot va xizmatlarning tannarxini pasaytirsa, sifatini yaxshilasa hamda raqobatbardoshlikni oshirsa, u holda bunday yangilik samarali innovatsiya hisoblanadi.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan hali to‘liq foydalanilmayapti. Ichki resurs va imkoniyatlarni harakatga keltirish orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotining jadal o‘shirishini ta‘minlash hamda vaqtinchalik ish bilan band bo‘lmagan aholiga yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin. Shu sababli, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilashda asosiy e‘tibor innovatsion faoliyatni kuchaytirishga qaratilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining samarali ishlashini ta‘minlash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish orqali ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo‘shadigan hissasini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shu bilan birga, quyidagi yo‘nalishlarni amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini jadal sur‘atlarda yo‘lga qo‘yish lozim. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyat hali yetarli darajada shakllanmagan. Samarali innovatsion faoliyatni rivojlantirish tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini innovatsion yondashuv bilan uyg'unlashtirish zarur. Innovatsion faoliyatni keng miqyosda va uzluksiz amalga oshirish — bu raqobat qonuniyatining o'zi, bozor iqtisodiyotining ajralmas talabi hisoblanadi.

Tadbirkorlarning innovatsion salohiyatini baholashda quyidagi uchta asosiy mezon inobatga olinishi kerak:

- rag'batlar;
- imkoniyatlar;
- cheklovlar.

Samarali innovatsiyalar foyda hajmini oshirishga xizmat qiladi va shu asosda rag'batlantirish mexanizmini shakllantirish mumkin. Foyda hajmini ko'paytirish oson jarayon emas: buning uchun tadbirkorlar yangi mahsulot, texnologiya va vositalarni yaratish hamda ularni joriy etish bo'yicha aniq yo'l xaritasiga ega bo'lishlari, tahlil asosida qaror qabul qilishlari lozim.

Amaliyotda tadbirkorlar innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida turli cheklovlarga duch keladilar. Ular orasida resurs cheklovlari, vaqt omili hamda monopolistik to'siqlar muhim o'rin tutadi. Yangi va murakkab tizim yoki mahsulotni ishlab chiqish, uni ishlab chiqarishga joriy etish ko'p hollarda bir nechta tarmoqlarning hamkorlikdagi faoliyatini talab etadi. Shu sababli bunday jarayonlarni muvofiqlashtirish uchun davlat tomonidan markazlashgan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yo'lga qo'yish muhimdir.

Korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish ularning ko'lami bilan bevosita bog'liq. Shu bois tadbirkorlik korxonalarining ishlab chiqarish hajmini tahlil qilish asosida ularni optimallashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun uni to'g'ri, xolis va tizimli baholash zarur. Bunday yondashuv orqali korxonalar va tashkilotlarda innovatsion faoliyat natijadorligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida tadbirkorlik uchun katta imkoniyatlar mavjud, biroq bu imkoniyatlar cheksiz emas. Ushbu cheklovlarni chuqur o'rganib, ularning yechimini topgan tadbirkor o'z faoliyatini uzoq muddatli istiqbolda muvaffaqiyatli davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063> .

2. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 19-iyunda ma'qullangan. O'RQ-630-son <https://lex.uz/docs/-4910391>

3. Ristovska Katerina, Ristovska Aneta. *The Impact of Globalization on the Business*. Conference Paper.

4. Lutfulla Xabibullayevich Ubaydullayev, Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. (2021). The Digital Economy: Advantages and Risks. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 153–159. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a23>

5. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2016. – 1056 с.
6. Казаков О. С. Improving the Management Activity of the Fruit and Vegetable Industry. Журнал “Theoretical & Applied Science”, № 12/2018.
7. Казаков О. С. The Role of the Textile Industry in the Economy of Uzbekistan. Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR), ISSN: 2249–0892, Vol. 9, Issue–2, Dec–2019.
8. Абрамешин А. Е. Менеджмент инновационной организации: учебное пособие. – М.: Европейский центр по качеству, 2005. – 408 с.
9. Агабеков С. И., Кокурин Д. И., Назин К. Н. Инновации в России: системно-институциональный анализ. – М.: ТрансЛит, 2011. – 376 с.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**